

XIZMAT KO'RSATISH TARMOQLARIDA MONOPOLIYAGA QARSHI SIYOSATNING O'ZBEKISTON SHAROITIGA MOSLASHTIRILGAN KONSEPTUALYONDASHUVINI TAHLIL QILISH

Bekbutayev Nodirjon Fayzullayevich

Urganch davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18548042>

O'zbekiston Respublikasida so'nggi yillarda xizmat ko'rsatish tarmoqlarini rivojlantirish, raqamli texnologiyalarni joriy etish va raqobat muhitini yaxshilash bo'yicha keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Davlat xizmatlari, moliyaviy xizmatlar, savdo, transport-logistika, turizm va aloqa sohalarida raqamli platformalar va onlayn xizmatlar ulushi ortib bormoqda. Shu bilan birga, raqamli xizmatlar bozorida ayrim yirik subyektlarning ustun mavqega ega bo'lishi, bozorga kirish to'siqlarining kuchayishi va raqobat cheklanishi xavfi ham kuzatilmoqda. Bu holat monopoliyaga qarshi nazoratning samaradorligini oshirish va uni raqamli sharoitga moslashtirish zaruratini yuzaga keltiradi.

Xizmat ko'rsatish tarmoqlarida raqamli transformatsiya va monopoliyaga qarshi nazorat masalalari xorijiy ilmiy adabiyotlarda keng yoritilgan bo'lsa-da, ushbu tadqiqotlarning aksariyati umumiy raqamli iqtisodiyot yoki sanoat va platforma bozorlari misolida olib borilgan. MDH mamlakatlari va O'zbekiston sharoitida esa mazkur masalalar ko'proq normativ-huquqiy yoki tavsifiy yondashuvlar asosida o'rganilgan bo'lib, xizmatlar sektorining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda integratsiyalashgan va empirik baholovchi ilmiy tadqiqotlar yetarli emas. Ayniqsa, raqamli transformatsiyaning raqobat muhitiga va monopol xavflarga ta'sirini ekonometrik modellar asosida baholash masalasi ilmiy jihatdan kam o'rganilgan.

Biz tadqiqotimizda ana shu ilmiy bo'shliqni to'ldirishga qaratilgan bo'lib, xizmat ko'rsatish tarmoqlarida raqamli transformatsiya va monopoliyaga qarshi nazoratning o'zaro bog'liqligini tizimli, integratsiyalashgan va empirik-econometrik yondashuv asosida tadqiq etishni maqsad qilib qo'yadi. Tadqiqot natijalari O'zbekiston sharoitida raqamli xizmatlar bozorini samarali tartibga solish, sog'lom raqobat muhitini shakllantirish va monopol xavflarni kamaytirishga xizmat qiluvchi ilmiy asoslangan xulosalar va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishga yo'naltirilgan.

Tadqiqotimizning asosiy maqsadi xizmat ko'rsatish tarmoqlarida raqamli transformatsiya jarayonlarining monopoliyaga qarshi nazorat va raqobat muhitiga ta'sirini tizimli va empirik jihatdan o'rganish hamda O'zbekiston sharoitiga moslashtirilgan ilmiy asoslangan konseptual va regulativ mexanizmlarni ishlab chiqishdan iborat.

Zamonaviy iqtisodiy rivojlanish sharoitida xizmat ko'rsatish tarmoqlari raqamli transformatsiyaning eng tez va chuqur kirib borayotgan sohalaridan biri hisoblanadi. Raqamli platformalar, Big Data, sun'iy intellekt va algoritmik boshqaruv xizmatlar bozorida samaradorlikni oshirish bilan bir qatorda, raqobatning yangi shakllarini va monopol xavflarning yangi manbalarini yuzaga keltirmoqda. Shu sababli raqamli transformatsiya jarayonlarini monopoliyaga qarshi samarali nazorat mexanizmlari bilan uyg'unlashtirish masalasi jahon miqyosida dolzarb ilmiy va amaliy muammo sifatida namoyon bo'lmoqda.

Rivojlangan davlatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, raqamli xizmatlar bozorida monopoliyaga qarshi siyosatni baholash an'anaviy narx va bozor ulushi mezonlari bilan cheklanib qolmaydi. Yevropa Ittifoqida raqamli transformatsiya kuchli regulativ yondashuv

bilan uyg'unlashtirilib, Digital Markets Act (DMA) va Digital Services Act (DSA) orqali platforma ustunligini oldindan cheklashga qaratilgan **ex-ante** nazorat mexanizmlari joriy etilgan. Buyuk Britaniyada esa raqamli bozorlar uchun maxsus **Strategik bozor maqomi (SMS)** tushunchasi ishlab chiqilib, yirik platformalar faoliyati alohida tartibga solinmoqda. AQShda raqamli transformatsiya asosan bozor mexanizmlariga tayangan holda rivojlanib, monopoliyaga qarshi nazorat ko'proq **ex-post** yondashuv va sud amaliyoti orqali amalga oshiriladi. Yaponiya tajribasi esa davlat va xususiy sektor hamkorligiga asoslangan muvozanatli model bilan ajralib turadi.

Ushbu xorijiy tajribalar tahlili raqamli iqtisodiyotda monopoliyaga qarshi nazoratning mohiyati o'zgarganini ko'rsatadi. Endilikda monopoliyani baholashda platforma ustunligi, ma'lumotlar konsentratsiyasi, tarmoqli effektlar, algoritmik narx belgilash va platformaga bog'lanish (lock-in) kabi omillar ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. Bu esa raqamli xizmatlar bozorida sog'lom raqobatni ta'minlash uchun yangi ilmiy yondashuvlar va institutsional mexanizmlar ishlab chiqishni taqozo etadi.

Mazkur tadqiqot doirasida xorijiy ilg'or tajriba asosida **O'zbekiston sharoitiga moslashtirilgan raqamli transformatsiya va monopoliyaga qarshi nazoratning konseptual modeli** ishlab chiqildi. Ushbu modelning asosiy g'oyasi raqamli innovatsiyalarni cheklamasdan, bir vaqtning o'zida monopol xavflarni oldindan aniqlash va nazorat qilishdan iborat. Modelda raqamli monitoring, algoritmik shaffoflik, ex-ante nazorat choralarini joriy etish hamda raqamli regulyatorlar va antimonopol organlar o'rtasidagi institutsional hamkorlik muhim bo'g'in sifatida belgilandi. Taklif etilgan konseptual yondashuv O'zbekiston xizmatlar sektorida raqamli transformatsiyani barqaror, inklyuziv va innovatsion rivojlanish yo'liga yo'naltirish imkonini beradi. Xususan, yirik raqamli platformalar faoliyatini oldindan baholash, algoritmik diskriminatsiyani aniqlash va kichik biznes subyektlari uchun teng raqobat sharoitlarini yaratish orqali sog'lom raqobat muhiti shakllantiriladi. Natijada raqamli xizmatlar bozorida iqtisodiy samaradorlik, ijtimoiy adolat va uzoq muddatli strategik barqarorlikni ta'minlashga xizmat qiluvchi kompleks mexanizm yuzaga keladi. Shunday qilib, 1.2-band doirasida olib borilgan tahlillar xizmat ko'rsatish tarmoqlarida raqamli transformatsiya va monopoliyaga qarshi nazoratni xorij tajribasi asosida ilmiy jihatdan umumlashtirish, hamda uni O'zbekiston sharoitiga moslashtirish zarurligini asoslab berdi. Ushbu konseptual yondashuv tadqiqotning keyingi boblarida empirik tahlil va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish uchun mustahkam nazariy-metodologik poydevor bo'lib xizmat qiladi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Haucap J., Heimeshoff U. Google, Facebook, Amazon, eBay: Is the internet driving competition or market monopolization? // *International Economics and Economic Policy*. – 2014. – Vol. 11, No. 1–2. – P. 49–61. – DOI: 10.1007/s10368-013-0246-6.
2. Hovenkamp H. J. Antitrust and platform monopoly // *Yale Law Journal*. – 2021.
3. Rikap C. *Capitalism, power and innovation: Intellectual monopoly capitalism uncovered*. – London: Routledge, 2021. – DOI: 10.4324/9781003050632.
4. Wörsdörfer M. Digital platforms and competition policy: A business-ethical assessment // *Journal for Markets and Ethics*. – 2021. – Vol. 9, No. 2.
5. Yin T. Algorithmic collusion and competition policy in the digital economy // *Antitrust Bulletin*. – 2020. – Vol. 65, No. 3. – P. 341–365. – DOI: 10.1177/0003603X20934220.